

**O'QUVCHILARNI KASB TANLASHGA YO'NALTIRISHDA INNAVATSION TEKNOLOGIYALARDAN
FOYDALANISH**

Sharipov Abdumalik Axmadovich

Navoiy davlat pedagogika instituti

"Texnologik ta'lif kafedrasasi" o'qituvchisi

Jaloldinova Shahnoza Xasanboevna

Andijon davlat pedagogika institute v/b dotsent

ANNOTATSIYA

Maqlolada o'quvchilarni kasb tanlashga yo'naltirishda innovatsion ta'lif texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari o'rganilgan. Texnologiya fanini o'qitishdagi innovatsiyalar va ilg'or xorijiy tajribalar to'g'risida so'z yuritilgan.

Kalitso'zlar: Innovatsion ta'lif, kasb tanlashga yo'naltirish, metod, loiba, kasb, qiziqish, qobiliyat, xarakter, shaxs.

Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab quvvatlash maqsadida kasb tanlashga yo'llashga oid yoshlarning ma'naviy, intellektual, jismoniy va axloqiy jihatdan kamol topishiga ko'maklashish, yoshlar uchun ochiq va sifatli ta'lifni ta'minlash, yoshlarni kasbga yo'naltirish va ularning bandligi uchun shart-sharoitlar yaratish, yoshlarni vatanparvarlik, fuqarolik tuyg'usi, bag'rikenglik, qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, zararli ta'sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga bo'lgan qat'iy ishonch va qarashlarga ega qilib tarbiyalash g'oyalari aks ettirilgani ta'lif va tabriya sohasidagi mutaxassislarni ma'suliyatini yanada oshiradi. O'qituvchilarining ta'lif jaroyonida ilg'or va zamonaviy usullaridan foydalanishga, yangi informatsion-pedagogik texnologiyalarini tadbiq qilishga, o'quvchilarni kasbga yo'naltirish ishlarini xalq xo'jaligi tarmoqlari istiqbolini hamda, kasb-hunar mifiktablari sohalashtirilganligini hisobga olgan holda bajarishiga xizmat qiladi.

Shuningdek, ta'lif jarayonining barcha ishtirokchilarini to'laqonli rivojlanishlarini ko'zda tutadi. Bu esa ta'lifni loyihalashtirilayotganda, albatta, ma'lum bir ta'lif oluvchining shaxsini emas, avvalo, kelgusidagi mutaxassislik faoliyati bilan bog'liq, o'qish maqsadlaridan kelib chiqqan holda, yondoshilishni nazarda tutadi, fan, texnika va texnologiyalarning zamonaviy rivojlanish darajasiga mos bilim berish, kasb tanlashga yo'naltirish orqali ularni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalashda ta'lif muassasalari o'qituvchilarining o'rni beqiyosdir. Yuqorida bayon etilgan vazifalarni bajarish uchun o'quvchi, talaba shaxsini har tomonlama o'rganish, tahlil va tadqiq qilish, kasb tanlashga yo'naltirish dolzarb masaladir.

Kasb tanlashga yo'llash pedagoglar jamoasi tomonidan hal etiladigan umumpedagogik vazifa hisoblanadi. Shu bilan birga, bu ishda texnologiya ta'limi alohida o'rinni egallaydi. Bunga sabab shuki, texnologiya ta'liming mazmuniga qator kasblar bilan muntazam ravishda tanishtirish vazifasi qo'yiladi va bu tanishtirish faqat nazariy jihatdangina emas, amaliy jihatdan ham olib boriladi. Kasb

to`g'risida tasavvur ana shunday tarzda berilgandagina u haqida to`liq tassavvurga ega bo`lish mumkin bo`ladi.

To`g'ri kasb tanlash insonning kelajagini hayot tarzini belgilashda katta ahamiyatga ega. Har bir shaxs kasbni o`z qiziqishi, qobiliyati va layoqatlari nuqtai nazaridan tanlaydi.

Texnologiya va kasb-hunar ta'limida o'quvchilarni kasbga yo'naltirish ishi quyidagi usullarda amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

1. O'quvchilarni zamonaviy kasblar bilan tanishtirish;
2. Kasblar, mehnat yutuqlari talqin etilgan asarlarni o'qishni tavsiya etish;
3. Har bir kasb haqida maxsus darslar o'tish, "Master-klass" darslar tashkil etish;
4. Ishlab chiqarish korxonalari, fermer xo'jaliklari firmalari, fan, ta'lim, madaniyat san'at muassasalariga oid sayohatlar tashkil etish;
5. Mehnat ilg'orlari bilan uchrashuvlar, ular erishgan yutuqlari haqida suhbatlar o'tkazish;
6. Tadbirkorlik istiqbollarini ko'rsatish;
7. O'quvchilarni turli xil to'garaklarga jalg etish;
8. Yangi kasb va mutaxassisliklar, fan-texnika taraqqiyoti, ishlab chiqarish texnologiyalari, invistitsiyalar kiritish, iqtisodiy rivojlanish qonuniyatlari bilan muntazam tanishtirib borish.

Kasb tanlashda o'quvchilarga qiziqish, qobiliyat, idrok, xarakter, tafakkur, erk kabi bir qator omillar ta'sir etadi.

Loyihaviy ta'lim - ta'lim modeli bo'lib, unda o'qituvchi tomonidan loyihalash ko'rinishiga ega, muammoni izlash, uni tadqiq etish va hal etish, muayyan, beqiyos, shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatga ega natijaga erishish, uni ommaviy taqdim etish va jamoatchilik tomonidan baholanishini tashkil etish va rejalshtirishni anglatuvchi, mustaqil o'quv faoliyati tashkil etiladi.

Kasbga yo'naltirish tizimini loyihalashtirishda quyidagi asosiy yo'nalishlar:

Kasbiy axborot - yoshlarni zamonaviy ishlab chiqarish turlari va kasblari, xo'jalik majmuasining malakali kadrlarga bo'lgan ehtiyojlari kasb bozorining kelajakdagi rivojlanishi, kasblarni o'zlashtirishning shakllari va sharoitlari mehnat faoliyati jarayonida kasbiy malakaviy o'sish va o'z-o'zini takomillashtirish imkoniyatlari bilan tanishtirish;

Kasbiy maslahat - yoshlarning pedagogik, psixologik xususiyatlari va imkoniyatlari hamda jamiyatning ehtiyojlarini hisobga olgan holda kasbiy yo'lini tanlash bo'yicha ongli ravishda qaror qabul qilish maqsadida kasbiy o'zligini aniqlashda yordam ko'rsatish;

Kasbiy tanlash - pedagogik, psixologik, psixofiziologik, tibbiy tashxis asosida yoshlarga psixologik - fiziologik xususiyatlarga ko'proq mos bo'lgan turli kasbiy yo'nalishlar to'g'risida tavsiyalar berish:

Kasbiy saralash - insonning ma'lum kasbga tegishli me'yoriy talablariga mos ravishda kasbiy loyiqlik darajasini aniqlash etiborga olinadi.

Loyihaviy ta'lim dolzARB ta'lim muammolarini hal etish imkonini beradi va davr talabiga mos keladi:

- o'quvchilarda aniq bo'lgan qiziqishlarini yanada takomillashtiriladi;
- uni kasb tanlash darajasiga yetkaziladi;
- ko'p qirrali qiziqishiga ega bo'lgan o'quvchilarda o'ziga ko'proq yoqqan sohani, ;
- texnika va ishlab chiqarishning ilmiy asoslarini, kreativ fikrlashni o`rgatiladi;

- o'quvchilarning mehnat ko'nikmalarini shakllantirish jarayonida mehnat va kasbga munosabatlarida yuqori axloqiy sifatlarni, mehnatsevarlik, vatanparvarlik va tadbirkorlikni rivojlantirib borishdan iborat, mehnat qiluvchi kishilarga nisbatan hurmat xislatlari tarkib topadi;
- kasbiy ma'lumotlar yetarlicha berib boriladi;
- inson mehnati bilan yaratilgan moddiy boyliklarni har tomonlama tejash xislatlari tarbiyalanadi, tadbirkorlik shakllanadi;
- o'quvchilarning o'zi qiziqadigan texnologiya ta'limi yo'nalishiga jalb qilish va egallangan iqtisodiy bilimlarni amalda qo'llashlariga erishiladi.

Bu jarayon to'g'ri tashkil etilganda shaxsnинг bo'lg'usi kasbiy faoliyat sub'yekti sifatida kompetentli yondashuv asosida bo'lajak mutaxassislarni shakllantirish amalga oshiriladi.

Hozirgi vaqtida O'zbekistonning iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalar kiritilishi sharoitida maktab o'quvchilarini kasb va kasbga yo'naltirishning muhimligi ancha oshdi.

Kasb-hunarni tanlashga yo'naltirilgan loyiha o'quvchilarga shaxsiy xususiyatlarini, qiziqishlari va qobiliyatlarini aniqlash imkonini beradi hamda mazkur ma'lumotlarga tayanib, ularning shaxsiy imkoniyatlariga mos keluvchi kasbni tanlash imkonini beradi. "My Wayproforientation" kompaniyasi Moskva davlat universitetining (Rossiya) "Gumanitar texnologiyalar" Test markazining rasmiy hamkor va "proforientator", "profmaster", "profnavigator" va boshqa dasturlardan foydalanish bo'yicha eksklyuziv huquqqa ega bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi va "My Wayproforientation" kompaniyasi poytaxtdagi barcha maktab o'quvchilarini "proforientator" dasturidagi "Shaxs va kasb" blokining maxsus testidan o'tkazadilar, bu bolalarning individual xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi. Olingan ma'lumotlarga asoslanib, "My Wayproforientation" kompaniyasi mutaxassislari yoshlar bilan guruhlarda suhbatlar o'tkazadilar, kelajakda qanday kasb tanlash bo'yicha o'z tavsiyalarini berishadi. To'g'ri kasb tanlash insonning kelajagini hayot tarzini belgilashda katta ahamiyat ega. Har bir shaxs kasbni o'z qiziqishi, qobiliyati va layoqatlari nuqtai nazaridan tanlashi maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab quvvatlash" to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.07.2017 yildagi Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakatining IV quriltoyidagi "Jismoniy va ma'nnaviy yetuk yoshlar-ezgu maqsadlarimizga etishsda tayanchimiz va suyanchimizdir" mavzusidagi nutqi (30 iyun 2017 yil).
3. Ochilov Shokir Baxtiyorovich, Nematov Bahron, Sharipov Abdumalik Ahmadovich, Mavlonova Yulduz Ilhomovna, Usmonova Sohiba Toyir qizi PEDAGOGICAL-PSYCHOLOGICAL DIAGNOSTIC BASES OF PREPARING STUDENTS FOR PROFESSIONAL ACTIVITY IN TECHNOLOGY EDUCATION SCIENCE AND INNOVATION INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL VOLUME 2 ISSUE 2 FEBRUARY 2023 UIF-2022: 8.2 | ISSN: 2181-3337 | SCIENTISTS.UZ
4. Nematov Bahron, Sharipov Abdumalik Ahmadovich, Ochilov Shakir Bakhtiyorovich, Mavlonova Yulduz Ilhomovna POSSIBILITIES OF USING INTERACTIVE TOOLS IN EDUCATION SCIENCE AND INNOVATION INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL VOLUME 2 ISSUE 6 JUNE 2023 UIF-2022: 8.2 | ISSN: 2181-3337 | SCIENTISTS.UZ

5. Jaloldinova.Sh.X va bosh. Texnologiya ta'limini o'qitishda KEYS-STADIni qo'llash imkoniyatlari. SCIENCE SHINE international scientific journal Issue 7 June 30. 2023
6. Jaloldinova.Sh.X va bosh. Texnologiya fanining uzluksiz ta'lim tizimidagi o'rni va roli. SCIENCE SHINE international scientific journal Issue 7 June 30. 2023
7. Muslimov NA. Mullaxmetov R.G. Kasbtanlashgayo'llash. O'quvqo'llanma. -Toshkent .2007
- 8.Сайфуллаева Гулхаё Ихтиёровна, Негматов Сайибжан Садыкович , Абед Нодира Сайибжановна, Камолов Ихтиёр Рамазонович, Баракаева Сарвиноз Тулкуновна, Камалова Дилнавоз Ихтиёровна МЕТОДИКА ПОЛУЧЕНИЯ КОМПОЗИЦИОННЫХ ОБРАЗЦОВ НА ОСНОВЕ ТЕРМОРЕАКТИВНЫХ ФУРАНО-ЭПОКСИДНЫХ ПОЛИМЕРОВ И ОРГАНОМИНЕРАЛЬНЫХ НАПОЛНИТЕЛЕЙ// Универсум технические науки январь, 2021 1(82)
9. I.R. Kamolov, G.I. Sayfullaeva -Formation of teacher's competence in the performance of laboratory and experimental works Journal of critical reviews. ISSN-2394-5125, 2020.